

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/04.06.2020.Fil.76.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**JO'RABOYEVA SABOXON ANVARXANOVNA**

**SHAVQIY NAMANGONIY VA UNING ADABIY MEROSI**

**10.00.02 – O'zbek adabiyoti**

**FILOLOGIYA FANLARI bo'yicha falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Namangan – 2024**

UO‘K: 821.512.133.09-(092)

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on  
philological sciences**

<b>Jo‘raboyeva Saboxon Anvarxanovna</b> Shavqiy Namangoniy va uning adabiy merosi.....	3
<b>Juraboyeva Sabokhon Anvarkhanovna</b> Shavkiy Namangoniy and his literary heritage.....	23
<b>Журабоева Сабохон Анвархановна</b> Шавкий Наманганй и его литературное наследие.....	43
<b>E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati</b> Список опубликованных работ List of published works .....	48

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/04.06.2020.Fil.76.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**JO'RABOYEVA SABOXON ANVARXANOVNA**

**SHAVQIY NAMANGONIY VA UNING ADABIY MEROSI**

**10.00.02 – O'zbek adabiyoti**

**FILOLOGIYA FANLARI bo'yicha falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Namangan – 2024**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida  
B2020.1.PhD/Fil1103 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Namangan davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.namdu.uz) hamda "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Karimova Farida Isakovna**  
filologiya fanlari doktori, dotsent

**Rasmiy opponentlar:**

**Tojiboyeva Muqaddas Abduraximovna**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Rahmanova Zulayho Jamolovna**  
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

**Yetakchi tashkilot:**

**O'zbekiston Milliy universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Namangan davlat universiteti huzuridagi PhD.03/04.06.2020.Fil.76.04 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_\_dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 160119, Namangan shahri, Boburshoh ko'chasi, 161-uy. Tel.: (+99869) 227-06-12; Tel.: (998-69) 228-85-01, Faks: 228-85-02. Web-sayt: www.namdu.uz, e-mail: info@namdu.uz faks: (+99869) 227-07-61; ye-mail: info@namdu.uz.)

Dissertatsiya bilan Namangan davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_-raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 160119, Namangan shahri, Uychi ko'chasi, 316-uy. Tel.: (99869) 227-29-81).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2024-yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_\_ raqamli reyestr bayonnomasi).

**Z.Y.Sodiqov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filol.f.d, professor.

**I.O'.Darvishov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

**M.Y.Sulaymonov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filol.f.d., dotsent.

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon adabiyotshunosligida millat ma'naviy taraqqiyotiga sezilarli hissa qo'shgan ijodkorlar asarlarini birlamchi qo'lyozma manbalar asosida o'rganish, shoirning adabiy merosini tiklash, ularni ilmiy muomalaga olib kirish, ular ijodini an'anaviylik va o'ziga xoslik nuqtayi nazaridan tadqiq etish, shoir va adiblarning jahon adabiyoti tarixida tutgan o'rnini belgilash yanada muhim ilmiy-nazariy, amaliy mohiyat kasb etmoqda. Bu esa iste'dodli ijodkorlarimizning ijodiy merosini xalqqa taqdim etish hamma vaqt dolzarb ahamiyat kasb etganligini ko'rsatadi. Shu bois, hozirgi adabiy jarayon an'ana, individual mahorat muammolarini ijtimoiy, badiiy-falsafiy aspektlarda yechish, uning muayyan shoir ijodidagi uslub manerasini aniqlash, umumiy va xususiy jihatlarini bugungi globallashgan ilmiy-nazariy tafakkur vositasida baholashni talab qilmoqda.

Dunyo adabiyotshunosligida mumtoz shoirlarning tarjimai holi, faoliyati, adabiy merosi, asarlarining yaratilish jarayonlari, ijtimoiy, siyosiy, madaniy muhitning ular ijodiga ta'siri va badiiy ijod masalalari borasidagi qarashlarini atroflicha tadqiq etish nihoyat darajada muhim. Mumtoz ijodkorlarning adabiy-badiiy merosi, yaratgan asarlarining janrlar tizimi, mavzular ko'lami, lingvopoetik tamoyillariga yangicha yondashuvda: ijtimoiy-siyosiy, ahloqiy, falsafiy-ma'naviy, ilohiy-irfoniy g'oyalarga tayanib o'rganish asosiy vazifa bo'lib kelmoqda. Jahon ilm-fani, adabiyoti va madaniyati rivojiga ulkan hissa qo'shgan mumtoz so'z san'atkorlarining hayoti va ijodiy merosini o'rganishga intilish kuchayib borayotgani esa e'tiborga molikdir.

O'zbek adabiyotshunosligida milliy merosni tiklash, izchil o'rganish, tahlil etish, undan jamiyatning ma'naviyatini yuksaltirish yo'lida foydalanish adabiyotning ustivor vazifasiga aylandi. "Bizning havas qilsa arziydigan buyuk kelajagimiz, buyuk adabiyotimiz va san'atimiz ham bo'ladi."<sup>1</sup> Mamlakatimizdagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy islohotlar asosida o'zbek adabiyotshunosligida ilgari ilmiy muomalaga kiritilmagan mumtoz she'riyatdagi ba'zi adabiy manbalarni tadqiq etish ishlariga e'tibor qaratilmoqda. "Bobolarimizga munosib binolar qurdik. Endi bobolarimizga munosib ilmiy muhit yaratishimiz kerak".<sup>2</sup> Bu borada namanganlik shoir Shavqiy Namangoniy hayoti va ijodi, uning turkiy va forsiy merosining she'riy janrlari, g'oyaviy-badiiy jihatlarini chuqur o'rganish, asarlarini tahlil qilish bugungi adabiyotimizning dolzarb vazifalardan biri hisoblanmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017- yil 24- maydagi PQ-2995-son "Qadimiy qo'lyozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son "Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2017-yil 13-sentyabrdagi PQ-3271-son "Kitob mahsulotlarini nashr etish va

<sup>1</sup> Mirziyoyev Sh. M. Adabiyot va san'at madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir. Prezident Sh.Mirziyoyevning O'zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma'ruzasi // "Xalq so'zi" gazetasi, 2017-yil. 21-avgust.

<sup>2</sup>Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг "Ислом цивилизацияси" марказига қилган таширифидаги нутқидан. 2021 йил, 29 январь.

tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi 2018-yil 5-iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-sonli qarorlari, 2020-yil 29-oktabrdagi "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6097-sonli, 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 18-fevraldagi "O'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotni xalqaro miqiyosda o'rganish va targ'ib qilishning dolzarb masalalari" mavzusidagi xalqaro konferensiyani o'tkazish to'g'risida"gi 124-sonli farmoyishi hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirishni va ularni amalga oshirish yo'llari" ustivor yo'nalishiga muvofiq holda amalga oshirildi.

#### **Muammoning o'rganilganlik darajasi.**

Jahon adabiyotshunosligida Sharq mumtoz adabiyoti vakillari hayoti va ijodi, adabiy merosi o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar yaratilgan. Xususan, ingliz sharqshunosi Charlz Ambrouz Stori, V.P.Nalivkin kabi olimlarning shoir merosi, xususan, tarixiy asarlari qo'lyozmalarini o'rganish borasidagi dastlabki say'-harakatlari e'tiborga molik<sup>3</sup>. Shuningdek, XIX asrning 90-yillaridagi manbalarda, xususan, Ishoqxon Ibratning "Tarixi Farg'ona" asarida uning "Pandnoma" nomli mo'jaz dostonidan parcha keltiriladi.<sup>4</sup>

O'zbek adabiyotshunosligida Shavqiy Namangoniy haqidagi dastlabki ma'lumotlar Po'lotjon Domullo Qayumovning "Tazkirai Qayyumiy" asarida beriladi va bir muxammasi keltiriladi<sup>5</sup>. Keyingi yillarda G'.Karimov, O.Nosirov, F.Ahmadjonova, Sh.Vohidovlar shoir asarlarini o'rganish borasida bir muncha ishlarni amalga oshirdilar.<sup>6</sup>

Sh.Vohidov, Sh. Qo'ldoshevlar esa shoir tarixiy asarlarining Qo'qon tarixini yoritishdagi ahamiyatiga to'xtaladi. A.Xalilbekov, Sh.Qo'ldoshev, N.Abdulohatov kabi olimlarlar tomonidan shoir adabiy merosini tadqiq etish va nashrga tayyorlash

<sup>3</sup>Стори Ч.А. Персидская литература. Том II. В трех частях перевел с английского переработал и дополнил Е.Ю.Брегел. 1935. – С. 1119; Наливкин В.Р. Краткая история Кокандского ханства. – Казань, 1886. – С.2; Валидов А.З. Восточные рукописи в Ферганской области // Записки Восточного Отделения Императорского Русского Археологического Общества. – Петроград, т. XX. 1915. – С. 86-109.

<sup>4</sup> Исҳоқхон тўра Ибрат. Фарғона тарихи. – Тошкент: Шарқ, 1991. – 119 б.

<sup>5</sup> Пулотжон Домулло Қайумов. Тазкираи Қайумий. Том II. – Тошкент, 1998. – В. 269-270.

<sup>6</sup> Каримов Ғ. Шавқий поэзиясининг реалистик кучи // Шарқ юлдузи, 1963, 2-сон. – Б.44-46; Носиров О. Шавқий Намангонийнинг янги қўлёзмаси // "Ўзбекистон маданияти" газетаси, 1965, 2-сон; Аҳмаджонова Ф. Шавқий Намангоний // Ўзбек тили ва адабиёти, 1970, 3-сон. – Б. 45-60; Вохидов Ш. Қўқон хонлиги тарихи (хонлик тарихи - манбаларда). Том I. – Тошкент, 2014. – Б. 63.

bo'yicha bir muncha ishlarni amalga oshiridi.<sup>7</sup> Shu bilan bir qatorda, Shavqiy she'rlaridan namunalar tazkira, bayoz va antologiyalardan o'rin olgan<sup>8</sup>. Lekin aynan Shavqiy Namangoniy va uning adabiy merosi o'zbek adabiyotshunosligida atroflicha o'rganilmagan.

### **Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.**

Dissertatsiya mavzusi Namangan davlat universiteti ilmiy tadqiqotlari rejasiga muvofiq "O'zbek adabiyotshunosligining dolzarb muammolari" mavzusi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** zullisonayn shoir, tarixchi olim Shavqiy Namangoniyning hayoti va ijodiy faoliyati, adabiy merosi va uning ko'lami, xususan, she'riyati va uning mavzular doirasi janr xususiyatlari, poetik mahoratini tahlil va talqin etish hamda shoir ijodining o'zbek adabiyotida tutgan o'rnini belgilashdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

adabiy-tarixiy manbalarda hamda xorij va o'zbek olimlarining asarlarida XX asrda yashab ijod etgan zullisonayn shoir Shavqiy Namangoniyning hayoti, ijodiy faoliyatiga ilmiy yondashuv usullari hamda tamoyillarini aniqlash;

Shavqiyning qo'lyozma devonini izohlar va sharhlar bilan ta'minlangan holda nashrga tayyorlash va ilmiy iste'molga olib kirish;

shoir adabiy merosining mavzu ko'lami va janriy xususiyatlarini aniqlash;

Shavqiy she'riyatidagi an'anaviylik va o'ziga xosliklarni qiyosiy-tipologik tahlil asosida ochib berish;

shoir ijodiy mahoratining asosiy qirralari hamda poetik xususiyatlarini tadqiq etish.

**Tadqiqot obyekti** sifatida Mulla Shamsiddin Shavqiy Namangoniyning O'zbekiston Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti Qo'lyozmalar fondining Hamid Sulaymon bo'limida № 1872/1 inventar raqami bilan saqlanayotgan qo'lyozma devoni, "Jome'ul-havodis", "Pandnoma", "Riyoz ul-muslimin", "Tarixi Shavqiy" asarlari, shoirning avlodlari qo'lida saqlanayotgan qo'lyozma devoni belgilandi.

**Tadqiqot predmetini** XIX asrda yashab ijod etgan Shavqiy Namangoniyning ijodiy merosi, xususan, devonidagi she'rlarning mavzu ko'lami va janr xususiyatlari, an'ana va novatorlik, poetika masalalari tashkil etadi.

---

<sup>7</sup> Воҳидов Ш. Қўқон хонлигида тарихнавислик (хонлик тарихи – манбаларда). Том I. – Тошкент, 2014. – Б. 63. Халилбеков А. Наманган адабий гулшани. – Наманган: "Наманган" нашриёти, 2007. – 124 б. Абдулаҳатов Н., Қўлдошев Ш. Мулла Шамсиддин Шавқий. – Наманган: Усмон Носир медиа, 2022. – 332 б; Арзибеков Р. Поэт Шавқий Каттақургани и его литературная среда: Автореферат дисс.канд. филол.наук. – Самарканд: 1963. – 27 б; Деҳқонов А. Муҳаййирнинг ҳаёти ва ижоди: Филол.фан. номз. дисс. автореф. – Тошкент, 2007. – 25 б; Жўраева Ҳ. Хусайний ҳаёти ва ижодий мероси: Филол. фан. бўйича фалс. докт (PhD) дисс.автореф. – Тошкент, 2018.– 23 б; Жўраев Ж. Комёб ҳаёти ва ижодий мероси манбалари тадқиқи: Филол. фан.бўйича фалс. докт. (PhD) дисс. – Тошкент, 2012. –26 б; Choriyeva M.Q. Tamkin Vuxoriyning hayoti va adabiy merosi. Filol. fan. nomz. ...(PhD) diss. Avtoref. – Buxoro, 2022. – 65 b.

<sup>8</sup> Муҳаммад Обид Намангоний. Тухфат-ул обидин ва анис -ул ошиқин. – Тошкент : Наврўз , 2019. – Б.159; Асрлар нидоси. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1982. – Б.385-39; Қосимов А. Наманган мумтоз адабиёти. 1-китоб. – Тошкент, 2024. – Б. 83-84.

**Tadqiqot usullari.** Dissertatsiyada tarixiy-qiyosiy, qiyosiy-tipologik, tasniflash, germenevtik va biografik tahlil usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

adabiy-tarixiy va ilmiy manbalarda hamda xorij va o'zbek olimlarining asarlari asosida Shavqiy Namangoniyning tarjimai holi, ijodiy biografiyasiga doir ma'lumotlardan foydalanib, nazariy asoslangan ilmiy xulosalar va tamoyillar aniqlangan va muxammaslaridagi an'anaviy hamda yangi poetik uslublar shoirning badiiy mahorati muayyan ilmiy-nazariy manbalarga tayanib, mumtoz lirik she'rlar janri guruhlangan, qat'iy xoslik belgilari haqidagi mavjud ilmiy tadqiqotlarda berilgan mulohazalar adabiyotshunoslik qarashlariga asoslanib dalillangan;

shoir adabiy merosi va uning janriy xususiyatlariga e'tibor qaratib, qo'lyozmasi matnidagi tafovutlari aniqlangan, mavzu ko'lamining ijtimoiy, axloqiy xususiyatiga, asarlarining mazmun-mundarijasiga va ularning o'ziga xos vazni, badiiy san'atlari, qofiya va raviy qo'llashdagi shoir mahorati "Jome' ul-havodis", "Riyoz ul-muslimin", "Pandnoma", "Tarixiy Shavqiy" asarlarida tarixiy-adabiy va axloqiy-ta'limiy qimmatini ochib berilgan hamda ijodkor asarlaridagi shakl va mazmun uyg'unligi shoirning mumtoz lirika janrlaridagi shakli va uslubiy yangiliklar Navoiy, Fuzuliy, Amiriy singari salaflar ijodiga murojaat qilish orqali an'anaviylik, novatorlik kabi tushunchalar ijodiy merosida adabiy-estetik jihatdan yangi mazmun-mohiyati tahlillar yordamida aniqlangan;

shoir devonidagi she'rlarning janr xususiyatlaridagi irfoniy, ma'naviy, nasihat kabi mavzular doirasidagi ijtimoiy, siyosiy, ishqiy, g'azal va muxammaslaridagi obrazlilik, davr voqe'liliklari talqini mazmun va badiiy shakllaridagi vazn, she'riy san'atlar uyg'unligi, vazn xususiyatlaridagi ramal, hazaj bahrlari, qofiya hamda tashbeh, husni ta'lil, iqtibos kabi she'riy san'atlarning qo'llanishidagi shoirning poetik mahorati tahlillangan;

Shavqiy Namangoniyning ijodiy merosidagi lafziy, ma'naviy va mushtarak san'atlar misralarning estetik-ekspressivligini oshirib, o'quvchida muayyan lirik janrga mansub asar haqida yaxlit tasavvur paydo qilibgina qolmay, poetik matnning semantik-strukturasini uyushtirib kelganligi, shuningdek, shoir ijodida mumtoz an'analarning barqaror va tizimli tadrijiy rivoji, poetik shakl va poetik mazmundagi orifona, oshiqona kabi g'azal va muxammaslarning janriy yangilanish tamoyillari asoslangan va isbotlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:**

XIX asrda yashab ijod etgan Shavqiy Namangoniyning biografiyasi, ijodiy merosining umumiy ko'lami va uning o'rganilish tarixi ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq etilgan va xulosalar chiqarilgan;

shoirning qo'lyozma devonini izohlar va sharhlar bilan ta'minlangan holda nashrga tayyorlangan;

shoir devonining janr xususiyatlari va mavzular doirasi turli janrlarda yozilgan she'rlari tahlili orqali oydinlashtirilgan;

shoirning g'azal va muxammaslaridagi mumtoz an'analarning tadriji, poetik shakl va poetik mazmundagi yangilanish tamoyillari tahlillar jarayonida dalillangan.

**Tadqiqot natijalari ishonchliligi** muammoning to‘g‘ri qo‘yilganligi, ilmiy muammoning o‘rganilish chegaralari aniq belgilab olinganligi, tahlillar va xulosalarning dastlabki va ishonchli manbalarga tayanganligi, chiqarilgan xulosalar ilmiy asoslanganligi, tahlillar qiyosiy-tarixiy, qiyosiy-tipologik, tasniflash, germenevtik va biografik tahlil usullari vositasida olib borilganligi, nazariy fikr va xulosalarning amaliyotga tatbiq etilganligi, natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, dissertatsiya xulosalari milliy adabiyotimiz tarixini boyitishga, dissertatsiyada ilgari surilgan nazariy g‘oyalar va umumlashma xulosalari XIX asr o‘zbek adabiyoti tarixi yo‘nalishida olib boriladigan tadqiqotlar hamda metodologik yondashuvlarni takomillashtirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati oliy o‘quv yurtlarining filologik ta‘lim yo‘nalishlarida “O‘zbek adabiyoti tarixi”, “Namangan adabiy muhiti” “Adabiyot nazariyasi”, “Adabiy manbashunoslik va matnshunoslik” kabi fanlardan ma‘ruzalar o‘qishda va amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazishda, maxsus kurs, seminarlar tashkil etishda, darslik va o‘quv qo‘llanmalar yaratishda manba bo‘lib xizmat qilishda ko‘rinadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** XIX asr oxiri XX asr boshlarida yashab ijod etgan namanganlik shoir Mulla Shamsiddin Shavqiy Namangoniy adabiy merosining o‘rganilishiga doir olib borilgan ilmiy ish asosida:

adabiy-tarixiy va ilmiy manbalarda hamda xorij va o‘zbek olimlarining asarlari asosida Shavqiy Namangoniyning tarjimai holi, ijodiy biografiyasiga doir ma‘lumotlardan foydalanib, nazariy asoslangan ilmiy xulosalari, muxammaslaridagi an‘anaviy hamda yangi poetik uslublar shoirning badiiy mahorati muayyan ilmiy-nazariy manbalarga tayanilganligiga doir xulosalardan PZ-201912258-raqamli 2021-2024-yillarga mo‘jallangan “O‘zbek adabiyotining ko‘p tilli (o‘zbek, rus, ingliz tillarida) elektron platformasini yaratish” mavzusidagi fundamental loyihada foydalanilgan (Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 26-yanvardagi 04/1-172-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada, loyiha shoir hayoti va ijodiy merosini o‘rganishga doir yangi ilmiy qarashlar, nazariy ma‘lumotlar va yangi manbalar bilan boyitilgan;

shoir adabiy merosi va uning janriy xususiyatlariga e‘tibor qaratib, qo‘lyozmasi matnidagi tafovutlari aniqlangan, mavzu ko‘lamining ijtimoiy, axloqiy xususiyatiga, asarlarining mazmun-mundarijasiga, shakl va mazmun uyg‘unligi Navoiy, Fuzuliy, Amiriy singari salafilar ijodiga murojaat qilish orqali an‘anaviylik, novatorlik kabi tushunchalar ijodiy merosida adabiy-estetik jihatdan yangi mazmun-mohiyat kasb etganligi haqidagi mulohazalardan O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining Shavqiy hayoti va ijodi, asarlaridagi umuminsoniy g‘oyalar targ‘ibiga bag‘ishlangan tadbirlarida, aholi o‘rtasida o‘tkazilgan adabiy uchrashuv, suhbat, kitob taqdimotlarida, shuningdek, “Adabiyot kunlari”, “Navoiyxonlik” singari adabiy-ma‘rifiy tadbirlar loyihasini ishlab chiqish va tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining 2024-yil 21-iyundagi 01-03/698-sonli ma‘lumotnomasi).

Shavqiy Namangoniyning ijodiy merosidagi lafziy, ma'naviy va mushtarak san'atlar misralarning estetik-ekspressivligini oshirib, o'quvchida muayyan lirik janrga mansub asar haqida yaxlit tasavvur paydo qilibgina qolmay, poetik matnning semantik-strukturasini uyushtirib kelganligi, shuningdek, shoir ijodida mumtoz an'analarning barqaror va tizimli tadrijiy rivoji, poetik shakl va poetik mazmundagi orifona, oshiqona kabi g'azal va muxammaslarning janriy yangilanish tamoyillari asoslangan va isbotlanganligi xulosalari va ilmiy yangiliklaridan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston" teleradiokanalining 2024-yil fevral va may oylaridagi "O'zbek adabiyoti tarixi", "G'azal bo'stoni", "Ta'lim va taraqqiyot" dasturlarini samarali tashkil etishda, ularning dastur va ssenariylarini tayyorlashda foydalanildi (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston teleradiokanali" davlat muassasasining 2024-yil 24-iyundagi 04-36-776-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, yangi dalil, fikr-mulohaza va nazariy xulosalar teleko'rsatuvlarning sifati ortishiga, tomoshabinlarning ajdodlarimiz ijodiga bo'lgan qiziqishlari kuchayishiga, shoir asarlarining mazmun-mohiyati va badiiyatini chuqurroq idrok etishlariga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi.** Tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-nazariy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Tadqiqot mavzusi bo'yicha 14 ta ilmiy ish e'lon qilingan. O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan, 3 tasi respublika, 3 tasi xorijdagi ilmiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uch asosiy bob, xulosa va adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan bo'lib, 157 sahifadan iborat.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Tadqiqotning "**Kirish**" qismida mavzuning dolzarbligi, zarurati, maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, uning fan va texnologiyalar rivojining ustuvor yo'nalishlariga mosligi asoslanib, ishning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, ishonchligi, amaliyotga joriy etilishi, aprobatsiyasi, e'lon qilingan ishlar va tuzilishi ko'rsatilgan va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiya bir-biriga mantiqan bog'langan va biri ikkinchisini taqozo qiluvchi uch bobdan iborat. Uning I bobi "**Shavqiy Namangoniyni hayoti va ijodini o'rganish manbalari**" deb atalgan. Bobning "**Shoir hayoti va ijodini o'rganilish tarixi**" nomli faslida Mulla Shamsiddin Shavqiy Namangoniyni hayoti va ijodini o'rganilish manbalari tahlilga tortilgan.

Ma'lumki, Qo'qonda Amir Umarxon har tomonlama kuchli bo'lgan davlatni boshqarib, xonlikni nafaqat iqtisodiy jihatdan balki, ma'naviy-madaniy jihatdan ham taraqqiy topishida muhim rol o'ynadi. "Yetmishdan ortiq shoirni o'z atrofida birlashtirib, o'zbek adabiyotitarixiga "Qo'qon adabiy muhiti" nomi bilan kirgan ulkan bir adabiy maktabni tashkil etgani va unga homiylik qilganining o'zi

Amiriyning madaniyatimiz oldidagi beqiyos xizmatidir.<sup>9</sup> Mohlaroyim-Nodira bilan birgalikda olimlar, shoirlar va ilm ahllarini qo‘llab-quvvatladi. Natijada, yagona tizimli bo‘lgan Qo‘qon adabiy muhiti yuzaga keldi. O‘zaro do‘stlik, adabiy hamkorlik va g‘oyaviy-badiiy birlikka asoslangan, uyushgan bir ijodiy hayot, shoirlarni o‘zida jamlagan badiiy tafakkurni yangi pog‘onaga ko‘targan adabiy jarayon tarkib topdi. Bu bevosita namanganlik shoirlar ijodiga ham o‘z ta‘sirini o‘tkazdi. Nodim, Ibrat, Shavqiy, Hayrat, Xilvatiy va So‘fizodalar mazkur ijodiy muhit an‘analaridan oziqlangan ijodkorlar edi. Maqsad va maslak birligi, adabiy hamkorlik shoirlar ijodida tub burilishlar yasadi va ularning ijodiy aloqalari namanganlik ijodkorlar maktabining shakllanishiga turtki bo‘ldi. Namanganda tarkib topgan ijodiy jarayon vakillaridan biri Mulla Shams Shavqiy Namangoniydir. Dissertatsiyada shoirning hayoti va faoliyati haqida ilmiy manbalar va uning qarindoshlari ma‘lumotlariga asoslangan holda fikr yuritildi. Shoir hayoti va ijodini o‘rganishga doir manbalar tahlilga tortildi.

Dastlab shoir haqidagi ma‘lumotni rus olimi Namangan uyezdida xizmat qilgan, bir necha yil Nanay qishlog‘ida yashagan va o‘lka tarixini o‘rgangan inson B. R. Nalivkin e‘tirof etgan. Nalivkinning aytishicha, u bir muncha muddat Nanay qishlog‘ida yashab yurgan chog‘larida I.F.Gotvald bilan ko‘rishganda unga noma‘lum bo‘lgan qo‘lyozma haqida so‘zlaydi. Bu asarni o‘zi o‘qib o‘rganib chiqqanligini e‘tirof etadi<sup>10</sup>. Shavqiy haqidagi qaydlar mashhur ingliz sharqshunosi Charlz Ambrouz Storru asarlarida ham uchraydi. “Fors adabiyoti” nomli asarida “Tarixi Shavqiy” asari va uning g‘oyaviy mazmuniga to‘xtaladi. Ushbu asar mazmuniga ko‘ra, ruslarning Farg‘onani ishg‘ol etganliklari haqida bo‘lib, qo‘lyozma nusxasi jahonga ma‘lum, u mashhur olim, sharqshunos Zaki Validiy Tog‘on (1890-1970) qo‘lida bo‘lgan.<sup>11</sup> Shoir ijodini ilmiy asosda o‘rganish XX asrning 60-yillaridan boshlandi, deb aytish mumkin. Professor Odiljon Nosirov “Shavqiy Namangoniyning yangi qo‘lyozmasi”<sup>12</sup> maqolasida Shavqiy Namangoniyning qo‘lyozmasi haqida fikr yuritadi. 1963-yilda professor G‘.Karimovning “Shavqiy ijodining realistik kuchi”, 1970-yilda F.Ahmadjonovanning “Shavqiy Namangoniy” maqolalari bosildi<sup>13</sup>. G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyotida 1982-yilda chop etilgan “Asrlar nidosi” majmuasida Shavqiy Namangoniy haqidagi ma‘lumot, uning ikki g‘azali, bir mustahzodi, “Pandnoma” asarining qisqartirilgan nusxasi, “Jome‘ ul-havodis” dostonidan parcha e‘lon qilindi. G‘.Karimovning “O‘zbek adabiyoti tarixi” darsligida shoirning hayoti va ijodi haqidagi ayrim ma‘lumotlar o‘rin olgan<sup>14</sup>. R.Orzibekov o‘zbek adabiyoti

<sup>9</sup> Қобилова З. Бадий ижодда таъсир ва издошлик масалалари. (Амирий шеърятти мисолида): Филог.фан. д-ри ... дисс. – Фарғона, 2021.– Б.43.

<sup>10</sup> I.Gotvald. Qozon va Peterburg universitetlarida ishlagan mashhur rus sharqshunoslaridan biri. Nalivkin so‘zlaridan ma‘lum bo‘lishicha, mazkur izoh yozilgan vaqtlarda, ya‘ni 1910-yillarda vafot etgan.

<sup>11</sup> Стори Ч. А. Персидская литература. В трех частях перевод с английского, переработал и дополнил Ю.Э. Брегель Том II. – М.: 1989. – С. 1199.

<sup>12</sup> Носиров О. Шавкий Наманганининг янги қўлёзмаси // “Ўзбекистон маданияти” газетаси, 1965 йил, 3-ноябрь.

<sup>13</sup> Каримов Ф. Шавкий поэзиясининг реалистик кучи // Шарқ юлдузи, 1963, 2-сон; Аҳмаджонова Ф.. Шавкий Намангоний // Ўзбек тили ва адабиёти, 1970, 4-сон; Асрлар нидоси. Мажмуа. – Тошкент: Фафур Ғулум номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1982.

<sup>14</sup> Каримов Ф. Ўзбек адабиёти тарихи. Дарслик. – Тошкент: Ўқитувчи, 1976. – В. 46.

tarixida o'nga yaqin Shavqiy taxallusli shoirlar ijod qilganliklari haqida ma'lumot berar ekan, ular orasida Shavqiy Namangoniyning o'ziga xos o'rni borligini ta'kidlaydi<sup>15</sup>.

Mulla Shamsiddin Shavqiy ijodini nafaqat O'zbekiston hududida, balki xorijda ham o'rganilayotgani ma'lum bo'ldi. Jumladan, xorijlik olim "Yaponiya ilmiy taraqqiyoti jamiyati" professori Yayo Kavaxara tomonidan ham shoir ijodiga qiziqish bildirilgan va u yashagan qishloqqa tashrif buyurgan. Xonadonida bo'lib, uning qo'lyozmalarini o'rganib, Mulla Shams Shavqiyning chevarasi Is'hoqjon hoji domla bilan suhbatlashgan<sup>16</sup>.

Shavqiy asarlarining ilmiy matnlarini yaratish borasida N.Abdulohatov, Sh.Qo'ldoshevlar hammualliflikda nashr etgan "Mulla Shamsiddin Shavqiy" kitobi ilk qadam bo'ldi<sup>17</sup>, deb aytish mumkin. Shavqiy Namangoniyning adabiy merosiga doir ma'lumotlar mavjudligi, tarixiy va lirik asarlarning to'liq matni kiritilganligi bilan ahamiyatli hisoblanadi. Kitob keng ommaga mo'ljallangan bo'lib, unda shoirning shajarasi, hayoti va ijodiga doir ma'lumotlar berilgan, devondagi she'rlar, dostonlar va hajviy asarining tabdili keltirilgan. Shuni ta'kidlash kerakki, shoir asarlari matnlari ko'p o'rinlarda xato o'qilganligi tufayli g'azallar, muxammas va musaddaslar vaznida saktaliklar yuzaga kelgan, imloviy va ishoraviy kamchiliklar uslubiy g'alizliklarni keltirib chiqargan. Bu esa shoir asarlari nashri ustida jiddiy ishlash zarurati borligini ko'rsatadi.

Bobning ikkinchi fasli "**Shoirning adabiy merosi**" deb nomlangan. Unda shoir ijodiy merosi xususida fikr yuritilgan. Shavqiy asarlarining 228 betli devoni va turli she'rlarni o'z ichiga olgan uchta qo'lyozmasi mavjud. Shoirning birinchi devoni qarindoshlari qo'lida saqlanadi. Devonda alifbo tartibiga rioya qilinmagan. Qo'lyozma muqovalanmagan. Devonga jami 3000 misradan ortiq o'zbek va fors-tojik tilidagi she'rlar kiritilgan.

Shavqiy Namangoniyning ikkinchi devoni Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharq qo'lyozmalari institutining H.Sulaymonov fondida "Devoni Shavqiy" nomi bilan 1872/I-raqam ostida saqlanadi. Qo'lyozma 114 varaq, ya'ni 228 betdan iborat. Bu qo'lyozmada Shavqiyning o'zigagina tegishli asarlari bo'lgan. Qo'lyozma To'raqo'rg'on qishlog'ida istiqomat qiluvchi Nuriddin aka Isroilovning shaxsiy kutubxonasidan topilgan. Varaq hajmi 21,5x17 sm. Qo'lyozmaning 170, 174, 200, 220-betlarida qog'oz ishlab chiqarilgan fabrikaning muhri bor. She'rlar sahifaga ikki ustun qilib chiroyli nasta'liq xati bilan ko'chirilgan.<sup>18</sup> Mazkur qo'lyozmaga "Devoni Shavqiy" mus'haf Odiljon ibn Nosir Namangon shahri 1966-sana" deb yozilgan. Ushbu qo'lyozma nusxasini professor O.Nosirov Shavqiy yashagan Kalvak qishlog'i va unga yaqin bo'lgan Shahand, Yesen, To'raqo'rg'on qishloqlarida bo'lib, shoirning hali ilm ahliga ma'lum bo'lmagan katta hajmli qo'lyozmasini hamda turli kishilar qo'lida saqlanayotgan asarlarini topadi va 1962-yildan boshlab shoirning ijodiy merosini o'rgana boshlaydi. Bu

<sup>15</sup> Орзибеков Р. Ўзбек адабиёти тарихи. Ўқув қўлланма. – Тошкент: Ўқитувчи, 2006. – В. 227.

<sup>16</sup> Абдулахатов Н., Қўлдошев Ш. Мулла Шамсиддин Шавқий. – Наманган: Усмон Носир медиа, – 2022. –Б. 136.

<sup>17</sup> Абдулахатов Н., Қўлдошев Ш. Мулла Шамсиддин Шавқий. – Наманган: Усмон Носир медиа, – 2022.

<sup>18</sup> Носиров О. Шавқий Наманганининг янги қўлёзмаси // Ўзбекистон маданияти газетаси. 1965, №3.

haqda u o‘zining “Shavqiy Namangoniyning yangi qo‘lyozmasi” deb nomlangan maqolasida ma’lumot beradi<sup>19</sup>. Shavqiy devonida ko‘zga tashlanadigan dastlabki jihat devon tarkibidagi sahifalar muayyan tartibda joylashmagani va aksariyat janrlar muxammaslar va g‘azallardan iboratligidir. Devondagi yozuvlar yaxshi saqlangan bo‘lsa-da, kitobning boshi, o‘rtasidagi varaqlari tushirib qoldirilganligi uchun qo‘lyozmani kim tomonidan ko‘chirilgani noma’lum. Shuning uchun dastlabki keltirilgan janr g‘azal bo‘lmay, balki muxammas janriga tegishli bo‘lgan misralar bilan boshlangan. Shoirning lirik merosidan tashqari, “Jome’ul – havodis”, “Riyoz–ul muslimin”, “Tarixi Shavqiy” kabi tarixiy dostonlari mavjud. Uning asarlaridan 8 tasi 1908 va 1911-yillarda Toshkentdagi Orifjonov litografiyasida “Tuhfat ul -obidin va anis un-oshiqin” to‘plamida bosilib chiqqan. Bu to‘plamdagi Shavqiy she’rlari 220 misrani tashkil qilib, ikkita g‘azal, oltita muxammasdan iboratdir.<sup>20</sup>

Tarixchi olim Sh.Vohidovning tadqiqotida “Jome’ul-havodis” asari Shavqiy devoni tarkibidagi alohida doston sifatida keltirilgan. Lekin bu doston “Jangnomayi Xudoyorxon” asari bilan bitta asar ekanligi qayd etilmagan<sup>21</sup>. Doston “Jome’ ul-havodis” deb nomlanib, har bir bob bitta hodisa hisoblanadi. 1852-1853-yillardagi tarixiy voqealarga bag‘ishlangan bo‘lib, “Jangnomayi Xudoyorxon” asari liro-epik turga mansub bo‘lib, voqealar bayoni nazmiy, ya’ni masnaviy yo‘lida yaratilgan. Xonliklar davridagi ijtimoiy-siyosiy hayotning eng muhim qirralarini aks ettirib, o‘sha davrning katta hayotiy masalalari ustida fikr yuritiladi.

“Riyoz ul-muslimin” dostoni shoir hayotining so‘nggi 1887-yillarida yozilgan bo‘lib, insonning hayoti davomida duch keladigan qiyinchiliklari, uning uchun sinov ekanligi haqidagi fikrlar, Valiboy ismli tarixiy shaxsning boshidan kechirgan voqealari bayonidan iborat. Shavqiy dostonda xilma-xil his-tuyg‘ularni, insonni voqealikka bo‘lgan shaxsiy munosabatini xolis ifodalaydi. Shoirning fikricha, Valiboy obrazida insonning ma’naviy ahloqi qanday bo‘lishi kerakligi haqidagi fikrlarga to‘xtalib, komil musulmon odam sof va mustahkam e’tiqod egasi bo‘lishi kerak, degan xulosaga keladi:

Agar bo‘lmasak kufr eliding yiroq ,  
Mabodo u chora dinimizdan chirog‘.  
Yetar bizga kufr ahlidin ko‘p sitam,  
Bo‘lur shami imonimiz nuri kam.(150- bet)

Doston hajmi 155 bayt, 320 misradan iborat bo‘lib, hazaji musaddasi mahzuf va maqsur vazni masnaviy usulida yaratilgan.

“Tarixi Shavqiy” asari Turkiston olkasini Chor Rossiyasi tomonidan bosib olinishi va bosqindan keyingi hodisalarni batafsil yorituvchi tarixiy manba hisoblanadi. Shuningdek, masnaviy usulida yozilgan tarix bolib, unda asosan

<sup>19</sup> Professor Odiljon Nosirov pedagog, olim, adib, tarjimon va jamoatchi inson sifatida Respublikaga tanilgan edi. U 1933-yil 22-aprelda Chortoq tumani Bo‘lanak qishlog‘ida tug‘ilgan. 1958-yildan boshlab to umrining oxirigacha Namangan Davlat pedagogika institutida faoliyat yuritadi. O‘zbek adabiyoti kafedrasini mudiri, filologiya fakulteti dekani lavozimlarida ishlagan. Talabalarga o‘zbek mumtoz adabiyoti, chet el xalqlari adabiyotidan dars bergan. O.Nosirov bir necha dasrliklar muallifi va madaniyatimiz rivojiga munosib hissa qo‘shgan inson edi.

<sup>20</sup> Мухаммад Обид Намангоний. Тухфат ул – обидин ва анис ул – ошикин. – Тошкент: Наврўз, 2019. – 240 б.

<sup>21</sup> Вохидов Ш. Қўқон хонлигида тарихнавислик (генезиси, функциялари, намояндалари, асарлари). – Тошкент: Академнашр. 2010. – 230 б.

Xudoyorxon va uning amaldorlari taxtni tashlab mamlakatni tark etganlari, Nasriddinni taxtga otqazilgani, mamlakat boshqaruvi paytida ruslar bilan bolgan janglari, shahar ichkarisiga rus soldatlarini kirishi va xalq orasidan 7 kishini tanlab xalqni mustamlakachilik siyosati bilan boshqarilganligi hodisalari ifodalangan asardir. Mustamlakachilar mahalliy xalqqa past nazar bilan qarar, uni qoloqlikda, mute'likda saqlashga intilar edilar. Mahalliy aholini talash, xo'rlash, qonunsizlik avj oldi. Dastlab, shoir Farg'oning avvalgi holati va rus bosqinchilari kirib kelgandan keyingi paytdagi jihatlarni quyidagicha izohlaydi:

Darig'o kishvari Farg'ona bizg'a ko'p ziyon o'ldi,  
Musulmondin hukumat ketgali behad yomon o'ldi.  
Tushub mo'ming'a kulfat g'ayri dinlar komron o'ldi,  
Shariat bog'in gulzorig'a bod xazon o'ldi.

Xudoyorxonning o'zi ham mamlakat boshqaruvida turli yomon ishlarga qo'l urib, adolat hukmiga bo'ysinmaydi. Amaldorlari va sipohining ahvolidan xabar olmay, ularga nopisandlik bilan qaraydi. Natijada, sipoh ham, atrofidagi odamlar ham xondan umidini uzadi va qo'llab-quvvatlamay qo'yadilar. Shundan keyin Farg'ona mulki qo'ldan boy beriladi. Xon atrofdagilarning so'ziga quloq solmay, xalqqa zulmni haddin ortiq oshirib yuboradi. Ularga hatto haq to'lamay qo'yadi, ichkilik, maishatga berilib, do'st-u dushmani bir-biridan ajrata olmay qoladi. Amaldorlar vaziyatni unga tushuntirmoqchi bo'lishdi, ammo Xudoyorxon ularning ogohlantirishlariga quloq solmaydi. Bir ishni sabab qilib, maslahatni bir joyga qo'ydilar-da, xondan yuz o'giradilar. Andijon, Farg'ona va Namangan qo'ldan boy beriladi. Mustamlakachilikning salbiy oqibatlarini yaqqol ko'rsatish uchun, shoir asar tarkibiga sahroyi badaviy haqidagi rivoyatni kirgizgan.

Shavqiyning "Pandnoma" asari 60 misradan iborat va masnaviy yo'lida yozilgan. Shoir "Pandnoma" hajviyasida Xudoyorxonga Mallaxon tilidan aytilgan nasihatlarini nazmiy shaklda ifodalab, xonlik tuzumidagi illatlarni fosh qiladi. Shoirning fikricha, saltanatni boshqarishda hukmdorning o'zgacha siyosati bo'lishi kerak. Xalq holidan ogoh bo'lish, el-yurt g'amini yeyish uchun yurt so'raydigan xon sakbozlik bilan shug'ullanmasligi kerak:

Erur shoh ishi elga damsozlik  
Munosib emas xonga sakbozlik.  
Qayon bordi sandagi bu aql-u hush,  
Yegay har iting kunda bir nimta go'sht.(160-b)

Voqealar xuddi shu zaylda davom etsa, dushman mamlakatni parokanda qiladi va xazina yig'ib, uni odamlar muhofazasi uchun sarflanmasa, o'z qo'llari bilan begonalarga topshirib qo'yadi, deya ta'kidlaydi. Qo'qon xoni Mallaxon nomidan o'z ukasi Xudoyorxonga nasihat tarzida bitilgan "Pandnoma" she'riga Is'hoqxon Ibratning "Tarixi Farg'ona" asarida ham murojaat qilingan.<sup>22</sup>

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "**Shavqiy Namangoniyning lirik merosi**" deb nomlangan bo'lib, uch fasldan iborat. "**Shavqiy lirikasining janriy xususiyatlari**" nomli birinchi faslida shoirning Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharq qo'lyozmalari institutining H.Sulaymonov fondida "Devoni Shavqiy" nomi

<sup>22</sup> O'zR FA SHI, qo'lyozma, №10117, – B. 50-53.

bilan 1872/I-raqam ostida saqlanayotgan devonining janrlar tarkibi o'rganilgan, g'azal, muxammas va musaddaslarning turlari tahlilga tortilgan.

Shavqiy devonida mumtoz she'riyatning 6 janridagi she'rlar mavjud. Unda shoirning jami 4390 misra she'rdan iborat ijodiy merosi jamlangan bo'lib, ularning umumiy mundarijasi quyidagicha:

1. G'azallar 31 ta, 528 misra.
2. Masnaviy 2 ta, 566 misra.
3. Muxammas 37 ta, 1486 misra. 8 ta muxammas tojik tilida yozilgan.
4. Murabba'1 ta, 54 misra.
5. Musaddaslar 2 ta, 118 misra.
6. Mustahzod 1 ta (to'la emas), 6 misra.

Shavqiyning lirik merosidagi kichik hajmli bir g'azalida ham lirik qahramon hodisalarni o'z holidan bayon etib qolmay, atrof- muhitning bir bo'lagi tarzida namoyon bo'lgan. Ya'ni g'azaliyoti majoziy ishqni tarannumi bilan chegaralanmay, mazmunan ijtimoiy ahamiyat kasb eta boshlagan. Shoir devonidagi g'azallarni mavzu jihatidan quyidagi turlarga ajratish mumkin:

1. Ishqiy g'azallar.
2. Axloqiy-ta'limiy g'azallar.
3. Diniy-ma'rifiy g'azallar.

Bu faslda har uchala tasnif asosidagi oddiy g'azallar mazmun va poetik nuqtayi nazardan tahlil qilindi va g'azallarning turlari alohida jadvalda tartiblashtirildi.

Shavqiy devonida oddiy g'azallar bilan bir qatorda, muvashshah-g'azallar ham mavjudki, ular shoirning badiiy mahoratini ochib beruvchi o'ziga xos jihatlardan biridir. Shoir qalamiga mansub muvashshah g'azallarni: kishi ismlari yashiringan muvashshahlar va ishorali-ishorasiz bo'lgan ta'rif-tavsif muvashshah g'azallarga ajratildi. Bobning bu faslida muvashshah g'azallar mazmuniy va shakliy jihatdan tahlil qilingan. Muvashshah g'azallar tahliliga e'tibor qaratisa, ularning mavjud so'zlarida Janobi Haqning sifatlari va nomlari ifodalangan. Demak, shu ism sohiblari ezgu fazilatlarini, qolaversa, odamiyligi bilan atrofda gilardan farq qilgan. Muvashshah-g'azallarning birinchi guruhiga mansub kishi ismlari devon tarkibida 14 taligi aniqlandi.

Jumladan:

Ul malaksiymo malohat mulkini sultonidur,

Husn mulki shohi ul, davron aning davronidur – matla'li muvashshah g'azalida har bir bayt boshidagi **“Ul”-I, “Simu”-S, “Husn”-H, “Orzu”-O, “Qomat”-Q, “Xo'bro'lar”-X, “Ishtiyoq”-O, “Nomi”-N** harflari jamlansa, **“IS'HOQXON”** nomi kelib chiqadi. Is'hoqxon Ibrat haqiqatan ham har tomonlama yetuk shaxs bo'lib, o'z davrining ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy-ma'rifiy hayotida muhim o'rin tutgan insonlardan biri edi. Muvashshahlarning ikkinchi turida ishora so'z bo'lmay, balki bir so'zning har tomonlama ifodalagan ma'nosi asos qilib olinadi. Shoir ta'rifidagi shaxsning alohida xususiyatlari to'liq misralarda aks etadi. Bunday ko'rinishdagi muvashshah g'azallarning barchasi majoziy xarakterga ega:

Ey jamoling oftob, olam arodur saning,

Nuri Haq bu xurshidi ruxsorinda paydodur saning.  
Ko‘zlaring jodu, yuzing gul, lablaring shahd-u shakar,  
Barcha mahvashlar aro, husnuning musaffodur saning.(237- bet)

Bayt mazmunida shoir ma’shuqani ta’riflab qolmay, balki majoz ko‘rinishidagi ilohiy ishqning sir-asrorlarini misralarda dalillaydi. Muvashshah baytlaridagi ishoralar so‘zlar jamlansa, “**Jumla**” so‘zidan “J” harfi, “**Arg‘uvon**”dan -“A” harfi, “**Masiho**”dan -“M” harfi,” “**Oy**”dan -“O” harfi, “**lablaring**”dan-“l” harfi olinadi. Barcha harflar birlashtirilsa, “**Jamol**” so‘zi hosil bo‘ladi. Jamol tasavvufda ilohiy nur manbasi, ya’ni mazhar ma’nosini izohlaydi. Demak, shoir baytlardagi ma’nolar orqali majoziy ishq haqiqiy ishqning bir bosqichi ekanligiga ishora qilmoqda.

Bobning ikkinchi fasli “**Shavqiy ijodida muxammasnavislik an’anasi**” deb nomlanadi. Shavqiy devonidagi she’rlarning katta qismini muxammas va taxmislar tashkil etadi. Muxammas va uning turlari haqida O.Nosirov, R.Orzibekov, T.Ro‘ziboyev kabi olimlarning tadqiqotlarida mo’tabar manbalarga asoslangan holda fikrlar bildirilgan.<sup>23</sup> Devondagi muxammaslar soni 37 ta bo‘lib, ulardan 8 tasi fors-tojik tilida yozilgan va hajmi 1486 misradan iborat. Shoirning o‘zi tomonidan yozilgan muxammaslar 17 ta bo‘lib, ular quyidagi guruhlariga ajratildi: oshiqona muxammaslar, muvashshah-muxammaslar, tasavvufiy-orifona muxammaslar va toponimik-muayyan hudud tasviriga bag‘ishlangan muxammaslar. Shavqiy ijodida ta’bi xud muxammaslar bilan bir qatorda, muvashshah–muxammaslarning yuzaga kelishi bu fikrni namunalar bilan dalillaydi. Mazkur muxammaslar o‘rganilganda “Ofoq Doda”, “Abduxalilxon”, “Zokircha” nomlariga bitilgan muvashshah-muxammaslar aniqlandi.

Shavqiy ijodida taxmis-muxammaslar, asosan, Alisher Navoiy, Fuzuliy va Jomiy g‘azallaridan ilhomlanib yaratilgan. Jumladan, Alisher Navoiy “Na yanglig‘ ayladi tasvir orazing naqqosh” misrasi bilan boshlanuvchi g‘azaliga bog‘langan muxammasda shoirning Alisher Navoiy an’analariga ijodiy munosabati yorqin aks etgan:

Qachonki vujudi sharifing, jononga bo‘ldi fosh,  
Tasadduq ayladi dili, jon ila qilur kengosh,  
Sanga bo‘lmadi Jabroil, haram aro sirdosh,  
Na yanglig‘ ayladi tasvir, orazing naqqosh,  
Ki na‘ting olg‘ali aylar ko‘ngil til ila talosh (112).

Tasavvuf ta’limotiga ko‘ra, ma’shuqaning oraz-yuzini tomosha qilish uchun kelgan oshiqdan ma’shuqa yuzini yashirdi. Bu holatga chidayolmagan oshiq yuzini ko‘z yoshlari bilan yuvdi va yana uning visolidan umidvor bo‘la boshlaydi. Mutlaq Haqning jamolini ko‘rish, uning munavvar olamiga yetishmoq uchun inson o‘z nuqsoni va ojiizligini e’tirof etib, bandalik maqomida sobit tura olishi kerak va Quyoshdek barchaga rahmat nurini sochuvchi Yori Azalning visoli uchun o‘zidagi nuqsonlarni yo‘qotib, barkamol ruh holatiga o‘tish kerak, ko‘z yoshlari – chidam

<sup>23</sup>Orzibekov P. Fazal va musammatlar. –Toshkent: Fan, 1984. – B. 128; Ro‘ziboyev T. Taxmis: genesis, tadrij va poetika. – Toshkent: Bookmanu print, 2022. – B.36. Nosirov O., Jamolov S., Ziёviddinov M. Ўзбек классик шеърляти жанрляри. – Toshkent: Ўқитувчи, 1979. – 183 б.

va bardoshi bilan qiyinchiliklarni yengishi kerakligi haqidagi fikrlar bayt mazmuniga singdirilgan.

Bobning **“Shavqiy she’riyatining mavzu ko‘lami”** nomli faslida shoir she’rlarining mavzular doirasi o‘rganilgan. Mumtoz janrlar xilma-xilligi, ularning har bir davr adabiyotida tutgan o‘rni uzluksiz taraqqiy etib borib, yangi-yangi mavzularni yuzaga keltiradi. Shavqiy she’riyatining salmoqli qismini ishqiy mavzudagi lirik she’rlar tashkil etadi. Shoirning ishqiy mavzudagi she’rlari, asosan, g‘azal janrida yaratilgan. Oshiqona g‘azallarining aksariyati ma’shuqaning ta’rif-u tavsifiga bag‘ishlangan. Jumladan, Shavqiy devonidagi eng go‘zal g‘azallardan biri “Ofarin” deb nomlangan. Ogahiy, Furqat, Muqimiy ijodida bunday mazmundagi g‘azallar mavjud, ammo ular Shavqiydagidek, ehtirosli va tizimli shaklda yozilmagan. Shoir ijodidagi o‘ynoqi g‘azal ma’shuqaning go‘zalligidan hayratga tushgan oshiqning kechinmalari, his-tuyg‘ulari ko‘tarinki ruhda ifodalanganligi bilan avvalgi shoirlar ijodidan farqlanadi:

Jono jamolingni ko‘rub, jononlar aytur ofarin,  
O‘z ko‘ksiga o‘zi urib yoronlar aytur ofarin.  
Qaddi niholingga qarab, abro‘ kamolingga qarab,  
Shoho visolingga qarab, sultonlar aytur ofarin<sup>24</sup>.

Sog‘inch va muhabbatdan tug‘ilgan bu tuyg‘ular oshiqning maftun qalbidagi, sof sevgining tarannumi bo‘lib yangraydi. Oshiq o‘z ma’shuqasini husn-u jamolda, qaddi kamolda tengsiz, lutf-u karamda yagona deb biladi. G‘azalda shoirning yuksak poetik mahorati namoyon bo‘lgan. Salaflari va zamondoshlari ijodini o‘rgangan, ularning g‘azalchilik sohasidagi tajribalariga tayangan shoir g‘azalning tuzilishi, mavzu va uning ifodasi, badiiyati kabi masalalarga ijodiy yondoshib, mavjud an‘analarni yangilashga harakat qildi. U Sharq mumtoz g‘azaliyotining yirik vakillari Hofiz Sheroziy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Fuzuliy, zamondoshlari Xo‘janazar Huvaydo, Amiriy kabi shoirlar ijodini o‘rgandi, ulardan bahramand bo‘ldi va ularning g‘azallariga muxammaslar bog‘ladi. Shoirning g‘azal va muxammaslari tadqiqi uning o‘z ovozigaga ega bo‘lga ijodkor ekanligini ko‘rsatadi.

Shavqiy ijodida axloqiy-ta’limiy mavzudagi she’rlar ham mavjud. Ularda shoirning zamonidagi nomutanosibliklarga munosabati aks etgan, deyish mumkin. Shoir insonlarni o‘z tabiatidagi illatlardan qutulishga, komillik kasb etishga chorlaydi:

Umid etmak vafo, nomardlardan ayni nodonlig‘,  
Desa bo‘lg‘ay topilmas, ahdi yolg‘onlarda diyonatlig‘.

Shoirning e’tiroficha, nomardlardan vafo kutish nodonlikdir, chunki ular diyonatsizligi tufayli yolg‘on so‘zlaydilar. Shoir o‘zi yashagan muhitda bunday “ahdi yolg‘onlar”ning ko‘pligidan iztirobda. Shunday vaziyatda inson har ishni chuqur o‘ylab bajarmog‘i, “yetti o‘lchab bir kesmog‘i” lozim. Aks holda, vaqt o‘tgach, pushaymon bo‘lishning hojati yo‘q:

Har ishni avvalida ehtiyot, aylab tafakkur qil,  
Qo‘lingdin o‘tsa vaqti, so‘ngra sud etmas pushaymonlig‘(51-bet).

<sup>24</sup>ЎзР ФА ШИ фонди, Баёз, Орифжонов литографияси. –Тошкент, 1907. – Б. 128-129.

